



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2025



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar





2025

YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2-JILD 3-SON



YANGI RENESSANS

**RESPUBLIKA ILMIY JURNALI
TO'PLAMI**

2 - JILD, 3 - SON

2025



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025

**Agrar siyosat ahamiyati****Otaboyev Raxmatjon Rashid o'g'li**

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotehnologiyalar instituti

Agrobiznes va raqamli iqtisodiyot fakulteti

Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich 108-guruh talabasi

Murodilloyev Temurbek Xurshed og'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotehnologiyalar instituti

Agrobiznes va raqamli iqtisodiyot fakulteti

Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich 108-guruh talabasi

Annotatsiya; ushbu maqolada yurtimizdagi ajoyibotlarga boy bo'lgan ajib yashil zonalarimiz bog'larimiz zilol suvlari ajabtovur sharshalarimiz mavjudligi hamda ularning himoyasi parvarishi rivojlantirish bo'yicha davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar haqidagi ma'lumotlar jamlangan

Аннотация; В этой статье обобщена информация о существовании в нашей стране замечательных зеленых зон, парков, чистых вод и удивительных водопадов, которые полны чудес, а также о реформах, проводимых нашим государством для их защиты и развития.

Annatation; This article summarizes information about the existence of our wonderful green zones, parks, clear waters, and amazing waterfalls in our country, which are full of wonders, and the reforms being carried out by our state to protect and develop them.

Kalit so'z; Agrar islohot, mulk, konsepsiya, natural, diktatura, totalitar, qonun, siyosat, dehqon, ijara, bozor, sotsialistik.

Ключевые слова: Аграрная реформа, собственность, законодательство, натуральный, диктатура, тоталитарный, право, политика, крестьянин, рента, рынок, социалистический.

Keywords: Agrarian reform, property, legislation, natural, dictatorship, totalitarian, law, politics, peasant, rent, market, socialist.

Bilamizki yurtimizda ko'rsang ko'z quv naydigan, ko'ngilni xushnud qiladigan mo'jiza deya hisoblanmish ajoyib tabiatimiz, nima eksang gullab yashnab ketguvchi unumdor tuproqimiz, go'zal bog'larimiz lolalar gurkiratgan adirlarimiz, bepayon dalalarimiz, salobatli tog'larimiz bor. Bugun shu ajoyibotlar va ularning himoyasi va yanada yashnashidagi bizning vazifamiz davlatimizning shu sohada olib borayotgan islohotlari haqida gaplashamiz.

Agrar islohotlar, qishloq xo'jaligidagi islohotlar — davlatning yerga mulkchilik munosabatlari va yerda xo'jalik yuritish usullarini o'zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlari majmuidir. Dastlab Agrar islohotlar konsepsiyasi





maqsad va vazifalari, yo'nalishi, uni o'tkazish bosqichlari aniqlab olinadi. Shunga asoslanib Agrar islohotlarni o'tkazishning aniq chora-tadbirlari belgilanadi va ularni davlat amalga oshiradi. Tarixda Agrar islohotlarning 3 turini ko'rish mumkin. Birinchisi an'anaviy (natural, biqiq, qoloq) iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishni ko'zlovchi Agrar islohotlar Ular jumlasiga 19-20-asrlarda Yevropa, Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi Agrar islohotlarni kiritish mumkin. Ikkinchisi — bozor xo'jaligidan totalitar-rejali tuzumga o'tishni ko'zlagan va proletariat diktaturasi yordamida amalga oshirilgan Agrar islohotlar Uchinchisi — 90-yillar boshidan sobiq sotsialistik mamlakatlarda rejali iqtisodiyotdan qayta bozor munosabatlariga o'tishga qaratilgan Agrar islohotlar Birinchi toifadagi islohotlar qishloq xo'jaligida tovar ishlab chiqarishni o'stirib, uni bozor iziga solishni mo'ljallaydi. Zamindorlar mulki bo'lgan yer uni ekadiganlarga — dehqonlarga haq to'lash sharti bilan yoki bepul beriladi, yerga dehqonlarning xususiy mulki o'rnatiladi. Dehqonlar tabaqalashib, ularning bir qismi boylarga aylansa, boshqa qismi yollanma ishchilarga aylanadi. Agrar islohotlar qishloq xo'jaligida mexanizatsiyani qo'llab, bu sohadan ish kuchini siqib chiqarishga olib keladi. Agrar islohotlar fermerlar sinfini shakllantirib, ularning mavqeini mustahkamlaydi. Ikkinchi toifadagi Agrar islohotlar sobiq SSSR, Mongoliya, Sharqiy Yevropa davlatlarida va boshqa mamlakatlarda amalga oshirilgan. Bunday islohotlar natijasida yer to'la-to'kis yoki qisman xususiy mulkdorlar tasarrufidan chiqarilib, davlat mulkiga aylantiriladi, mustaqil dehqon xo'jaligi o'rniga davlat rejasiga binoan ishlovchi davlat xo'jaligi va jamoa xo'jaliklari barpo etiladi, ularni hukumat to'la nazorat qiladi. Bu islohotlar qishloqdagi erkin bozor munosabatlarini yo'qotadi, qishloq xo'jaligida stimullar so'na borganidan u inqirozga yuz o'giradi, oziq-ovqat taqchilligi doimiy tus oladi. Uchinch turdagi Agrar islohotlar davlatlashtirilgan qishloq xo'jaligidan erkin bozor xo'jaligiga o'tishni ko'zda tutadi, ular natijasida yerga davlat egaligi qisman yoki to'la-to'kis bekor qilinadi, yerni ijaraga ishlatishga ruxsat beriladi, davlat va jamoa xo'jaligining mulki dehqonlar o'rtasida bepul, qisman bepul, yoxud haqini to'lash sharti bilan taqsimlanadi. Dehqon (fermer) xo'jaligi asosiy xo'jalik turiga aylantiriladi, bu xo'jalik bozor talabiga qarab va o'z manfaatini ko'zlab ish yuritadi. 20-asr davomida O'zbekistonda Agrar islohotlarning so'nggi ikki turi amalga oshirildi. Sho'rolar davrida yer-suvlar ularning egalaridan tortib olinib, dehqonlarga berildi. Lekin tez orada ulardan yana tortib olinib davlat mulkiga aylan-tirildi. Bunday islohotlar 1917-22 yillarda o'tkazildi. 1925-26 yillarda yer-suv islohoti o'tkazildi. Bu islohotlarda mahalliy boylarga qarashli yerlarning bir qismi yersizlarga bepul taqsimlab berildi. Bunday islohotlar natijasida bozorga ishlovchi mustaqil dehqon xo'jaligi rivojlandi. Ammo bu uzoqqa bormadi, chunki 20-yillar islohoti qishloqni yoppasiga jamoalashtirish bilan yakunlandi. 1929-32 yillar



mobaynida dehqon xo'jaligi tamoman tugatilib, o'rniga davlat va jamoa xo'jaliklari barpo etildi, qishloq xo'jaligi totalitar-rejali tizim girdobida qoldi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, yangi mazmunga ega bo'lgan islohotlar boshlandi. Respublikada tub Agrar islohotlarning huquqiy asoslarini yaratadigan qonunlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Yer to'g'risidagi Qonuni yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish, tuproqning unumdorligini tiklash, tabiiy muhitni asrash va yaxshilash uchun, xo'jalik yuritishning hamma shakllarini teng huquqlar asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratish maqsadida yer munosabatlarini tartibga solish maqsadida „Yer to'g'risida“gi qonun, (20.06.1990), fuqarolarning tadbirkorlik qobiliyatini butun choralar bilan ishga solish, ularning ishbilarmonligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy kafolatlarini belgilash asosida bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini jadallashtirishga shuningdek,

Qonun mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarini erkin tanlash, bu shakllarning teng huquqlilik asosida amal qilishi, o'zaro hamkorlik va erkin raqobatlashuv ta'minlanadigan sharoitlarning yaratilishiga ko'maklashish maqsadida „O'zbekistonda tadbirkorlik to'g'risida“gi qonun (15.02.1991), ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lgan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi ommaviy mulkini o'zgartirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab berish maqsadida „Davlat tasarrufidan chikarish va xususiylash-tirish to'g'risida“ gi qonun (19.11.1991), dehqon xo'jaliklarini tashkil etish va yuritish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida „Dehqon xo'jaligi to'g'risida“ gi qonun va boshqa qonunlar hamda hukumat qarorlari qishloq xo'jaligida ko'p ukkladli iqtisodiyot poydevorini yaratishga yo'l ochdi. 1998-yil aprelda chiqilgan „Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida“, „Dehqon xo'jaligi to'g'risida“, „Fermer xo'jaligi to'g'risida“ qonunlari va O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi qabul qilindi. Qishloqda mulkdorlar sinfini shakllantirish siyosatdagi muhim yo'nalishga aylandi. O'zbekistonda bozor tizimini yaratishga qaratilgan yangi Ai. davomida davlat va jamoa xo'jaliklari yerining bir qismi (jami 500 ming ga) aholiga tomorqa tarzida foydalanish uchun berildi. Natijada 1996-yil aholining tomorqa xo'jaligida yer 640 mingni tashkil etdi. Yangi Agrar islohotlar ikkinchi yo'nalishi — bu qishloqni fermerlashtirish, ya'ni davlat va jamoa xo'jaliklari o'rniga dehqon va fermer xo'jaliklarini tashkil etishdan iborat. Yerga davlat mulki saqlangani holda yer xo'jalik yuritish uchun merosga o'tish sharti bilan dehqonlarga berildi. 1996-yil jami 19,5 ming dehqon va fermer xo'jaligi ishladi. Agrar islohotlarning uchinchi yo'nalishi saqlanib qolgan davlat va jamoa xo'jaliklarida dehqonlarning ulushbay mulkiga o'tishdan iborat bo'ldi.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak yurtimizda agrar siyosatni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha norma va qonunlar qabul qilinganligi bu sohaning ya'ni agrar siyosatni rovojlantirish qay darajada muhim o'rin tutishini anglatadi. Agrar siyosat bu sohadagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar orqali bir maromda olib boriladi deb hisoblasak bu sohaga qaratilgan islohotlar, rejalar va rivojlantirish dasturlari, Agrar siyosatning rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Yurtimizda bu sohani rivojlantirishga xissa qo'shish har birimizning burchimizdir

Foydalanilgan adabiyotlar;

- 1) https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_milliy_ensiklopediyasi
- 2) O'zbekiston respublikasi yangi tahrirdagi konstitutsiyasi (30.04.2023)
- 3) <https://share.google/ceEyTGZXtqGYGmP15>
- 4) <https://share.google/aJiUmdCiOXh14r5fe>
- 5) <https://share.google/ZuFSaWnol7zpLbNT6>

